

G'AZZOLIYNING "IHYO ULUMUD DIN" ASARIDA RO'ZANING INSON RUHIY TARBIYADAGI ROLI

Komiljonova Mohichehra Muzaffar qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi

+998945441117

komiljonovamohichehra@gmail.com

Annotatsiya: Islom ta'limoti nafaqat ibodat amaliyotlarini, balki insonning ma'naviy va axloqiy tarbiyasini ham o'z ichiga oladi. Ro'za ibodati esa inson ruhiyatini poklash, axloqiy yuksalishga erishish hamda iroda mustahkamligini shakllantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Shu boisdan Imom G'azzoliy (1058–1111) o'zining mashhur "Ihyo Ulumud-Din" ("Diniy ilmlarni tiriltirish") asarida ro'zaning inson ruhiy tarbiyasidagi o'rnini chuqur tahlil etadi. U ro'zani faqat tashqi shakl va qoidalarga rioya qilish bilan cheklamay, uni qalbni poklash, ruhiy yuksalish va Allohga yaqinlashish vositasi sifatida talqin etadi.

Kalit so'zlar: Imom G'azzoliy, Ihyo Ulumud-Din, ro'za, ruhiy tarbiya, nafs, tasavvuf, sabr, poklik.

Abstract: Islamic teachings encompass not only ritual worship but also the moral and spiritual education of individuals. Fasting, in particular, serves as a key instrument in purifying the soul, elevating ethics, and developing strong willpower. For this reason, Imam al-Ghazali (1058–1111), in his renowned work *Ihya' Ulumud-Din* (The Revival of the Religious Sciences), deeply analyzes the role of fasting in spiritual education. He interprets fasting not merely as adherence to external rules, but as a means of purifying the heart, achieving spiritual elevation, and drawing closer to God.

Keywords: Imam al-Ghazali, *Ihya' Ulumud-Din*, fasting, spiritual education, lust, Sufism, patience, purity.

Аннотация: Исламское учение охватывает не только религиозные обряды, но и духовно-нравственное воспитание личности. Пост рассматривается как важнейшее средство очищения души, нравственного возвышения и укрепления воли. Поэтому Имам аль-Газали (1058–1111) в своём знаменитом труде "Ихья Улюм ад-Дин" ("Оживление религиозных наук") глубоко анализирует роль поста в духовном воспитании человека. Он трактует пост не только как соблюдение внешних предписаний, но и как средство очищения сердца, духовного возвышения и приближения к Аллаху.

Ключевые слова: Имам аль-Газали, *Ихья Улюм ад-Дин*, пост, духовное воспитание, нафс, суфизм, терпение, чистота.

KIRISH

Imom G‘azzoliy asarlari islom falsafasi, tasavvuf va axloqiy tarbiya yo‘nalishida keng o‘rganilgan bo‘lsada, uning “Ihyou Ulumud Din” asarida ro‘zaning inson ruhiy tarbiyasiga ta’siri maxsus tadqiqot sifatida yetarlicha ilmiy tahlil qilinmagan. Ushbu ish quyidagi jihatlari bilan ilmiy yangilik kasb etadi:

G‘azzoliy ro‘zani faqat shariat doirasida emas, balki inson nafsini tarbiyalash va ruhiy poklanish vositasi sifatida ko‘radi. Ushbu yondashuv tasavvuf, axloqiy tarbiya va zamonaviy ruhshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Avvalgi tadqiqotlarda bu masala to‘liq ochib berilmagan.

Ro‘zaning sabr, iroda, o‘zini nazorat qilish va ichki muvozanatga ta’siri G‘azzoliy talqinida ko‘rib chiqilib, zamonaviy psixologik tadqiqotlar bilan taqqoslanadi. Masalan, zamonaviy kognitiv psixologiyada o‘zini tiyish va iroda boshqaruvi (self-control) muammosi o‘rganiladi, ammo bu tushunchalar islomiy ta’limot nuqtayi nazaridan hali mukammal tadqiq qilinmagan. G‘azzoliy va boshqa mutasavviflarning ro‘za haqidagi qarashlari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish – Junayd Bag‘dodiy, Abdulqodir Jiloni va Ibn Atoillah Iskandariy singari mutasavviflarning ro‘za haqidagi talqinlari bilan G‘azzoliy qarashlari o‘zaro solishtiriladi.

Ramazon oyi uchun tuhfa o‘laroq, asarning birinchi va ikkinchi juzlari oshiqib kutayotgan xalqimiz uchun nashriyotimiz tomonidan taqdim etildi

ADABIYOTNI O‘RGANISH

O‘zbekistonlik olim Z. G‘oyibnazarovanning tadqiqotida G‘azzoliy ta’limotida ruhiy tarbiya masalasi, xususan ro‘zaning psixologik va axloqiy jihatlari tahlil qilingan. Uning fikricha, G‘azzoliy ro‘za orqali inson ichki dunyosini tarbiyalash, iroda kuchini mustahkamlash va ruhiy hushyorlikni oshirishga alohida e’tibor qaratgan.

Bundan tashqari, Toshihiko Izutsu o‘zining “God and Man in the Qur’an” asarida G‘azzoliy tafsiridagi ruhiy jihatlarni falsafiy yondashuv bilan tahlil qilgan. U G‘azzoliyni Qur’oni karimdagi “taqvo” tushunchasini eng chuqur izohlab bergan mutafakkirlardan biri sifatida e’tirof etadi.

Shuningdek G‘arb va xususan rus tadqiqotchilardan G‘azzoliyni biografiyasini va qarashlarini A.Shmid, A.Krimskiy, E. Bertels, V.Bartold, V.Chalyon kabi olimlar o‘rganishgan. G‘arbiy Yevropa va amerikalik sharqshunoslar ham G‘azzoliyning merosini tadqiq etishga o‘z hissalarini qo‘shishgan¹.

O‘zbekistonda o‘rganilgalig darajasiga ko‘ra: Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Najmiddin Komilov, N. Yo‘ldoshev, Sadridin Salim, Aloviddin Mansur, Q. Munirov, Mubashshir Ahmad, Miraziz A’zam, Abduqodir Zohid, Abdulla Sher, Poyon

¹ Azimov Aziz. Imom Al-G‘azzoliyning satsiologik qarashlari <http://library.ziynet.uz/uz/book/43730> 15.05.2022.

Ravshan, Sayfiddin Rafiddin, Yo'ldosh Eshbek, Rashid Zohid, Mahkam Mahmud Andijoniy, F.Muzaffarov kabi keltirishimiz mumkin².

ASOSIY QISM

Insoniyat taraqqiyoti davomida ruhiy tarbiya har doim markaziy o'rinni egallagan. Inson hayoti, uning ijtimoiy munosabatlari va axloqiy qadriyatlarida ruhiy barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ro'za tutish insonning nafaqat jismoniy sog'lig'iga, balki ruhiy tarbiyasiga ham beqiyos ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur mavzu doirasida ro'zaning ruhiy tarbiyadagi o'rni, uning psixologik, axloqiy va ijtimoiy jihatlardagi ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ruhiy tarbiya-bu insonning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini, axloqiy qarashlarini va ongini shakllantirish, uni jamiyatga foydali shaxs sifatida kamol toptirish jarayonidir. Unga quyidagilar kiradi: Sabrlilikni shakllantirish, Ichki intizom, Salbiy his-tuyg'ularni boshqarish, Xushmuomalalik va bag'rikenglik. Ruhiy tarbiyaning asosiy maqsadi-shaxsni o'z ustida ishlashga undash, hayotga ijobiy qarashni rivojlantirish va to'g'ri hayotiy qadriyatlarni singdirishdir.

“Ey mo‘minlar! Sizlardan avvalgilarga ro‘za farz qilingani kabi, sizlarga ham ro‘za farz qilindi. Balki (shunday qilish orqali) taqvorod bo‘larsizlar” (Baqara surasi, 183-oyat).

Demak, ro'zaning maqsadi-taqvo, ya'ni Allohdan qo'rqib, har bir amalda poklik va halollikka intilishdir.

Ro'za tuta turib, inson ochlik, chanqoqlik, nafs istaklariga qarshi turadi. Bu esa sabrni mustahkamlaydi. Inson o'zini tutishga, hayotning qiyinchiliklariga bardosh berishga o'rganadi.

Ruhiy tarbiyada nafsni jilovlash muhim hisoblanadi. Ro'zador haromdan, yolg'on so'zlashdan, g'iybatdan, salbiy fikrlardan tiyiladi. Bu odatga aylansa, ruhiy yuksalish yuz beradi.

Ro'za nafaqat jismni, balki qalbni ham tozalaydi. Qur'on tilida bu "tazkiyatun nafs" deyiladi, ya'ni, nafsni poklash. Ro'za davomida inson o'z yuragini, fikrlarini musaffo saqlashga harakat qiladi.

Zamonaviy psixologlar ham ro'zaning inson ruhiyatiga ijobiy ta'sirini e'tirof etishmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra: ro'za stressni kamaytiradi, o'ziga ishonchni oshiradi, depressiyaga qarshi ijobiy ta'sir qiladi, ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

² Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ihyo ulumud din kitobi. – Toshkent; Movarounnahr, 2013. Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf Ruhiy tarbiya 1-juz. - Toshkent. Hilol nashr 2018; Yo'ldosh Eshbek. Ey farzand. – Toshkent: Movarounnahr, 2005. B-1; Rashid Zohid Qirq hadisi Qudsiy. – Toshkent Toshkent islom universiteti nashriyoti-matba birlashmasi, 2008; Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. Buxoro: Durdona nashriyoti; Yo'ldoshev N. Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi. Buxoro: Buxoro nashriyoti

Michigan universiteti olimlari olib borgan tadqiqotda, Ramazon oyida ro'za tutgan insonlarning kayfiyati va sabr-toqati ancha yuqori bo'lishi aniqlangan. Ro'zaning jamiyatdagi ruhiy muhitga ta'siri ham katta. Ro'za: hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi, saxovat va yordam ko'rsatishga undaydi, jamiyatda birdamlikni kuchaytiradi, xusumat va adovatni kamaytiradi. Ro'zador ochlikni his qilib, kambag'allar, ehtiyojmandlar ahvolini yaxshiroq tushunadi. Bu esa ijtimoiy adolat, bag'rikenglikni rivojlantiradi. Din va ruhiy tarbiya bir-biriga chambarchas bog'liq. Islom dini ruhiy poklikka katta e'tibor beradi. Ro'za esa bu yo'ldagi eng muhim amallardan biridir. Hadislarda ham ro'zaning ruhiy jihatlari haqida ko'p bor aytilgan: "Ro'za-bu qalqon. Undan biri saqlansa, yomonliklardan ham saqlanadi." (Buxoriy rivoyati)

Bu yerda "qalqon" so'zi himoya vositasi ma'nosida qo'llanadi. Ro'za insonni gunohlardan, yomon fikr va niyatlardan saqlaydi.

Imom G'azzoliy "Ihyou Ulumud Din" asarida ro'zaning uch darajasini bayon qiladi:

Oddiy ro'za – faqat ochlik va chanqoqlikdan tiyilish.

Maxsus ro'za – a'zolari gunohlardan saqlash (ko'z, quloq, til h.k.).

Eng oliy darajadagi ro'za – qalbni Allohdan begona narsalardan saqlash. Bu tushuncha ruhiy tarbiyaning yuksak bosqichidir. Ro'zaning oliy shakli butun qalb bilan Allohga bog'lanishdir.

Ro'za insonning ichki gigiyenasini shakllantirishda katta o'rin tutadi. So'nggi yillarda ro'zaning ruhiyatga ta'siri ilmiy tajribalar orqali o'rganilmoqda. Masalan: 2022-yilda Istanbul universiteti olimlari olib borgan izlanishda Ramazon oyida doimiy ro'za tutgan kishilarda asabiylik darajasi pasayib, ruhiy barqarorlik ortgani aniqlangan.

Frantsiyadagi Sorbonna universitetida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ro'za tutish vaqtida miyadagi serotonin (baxt gormoni) darajasi oshgan.

Amerikalik mutaxassis Pol Bregg o'zining ellik yillik shaxsiy tajribasidan kelib chiqib "Mo'jizakor ochlik" degan kitobini yozdi. Dunyodagi ko'plab tillarga tarjima qilingan bu kitob ro'za inson sog'ligi uchun eng zarur omil ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, ro'za inson ruhiy holatini mustahkamlaydi va ichki uyg'unlikni kuchaytiradi.

XULOSA

G'azzoliy ro'zani "qalbning poklanish vositasi" deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, ro'za nafaqat ochlik va chanqoqlikdan iborat bo'lib, balki qalbni gunohlardan, nafs istaklaridan, havoyi hirs va shahvatlardan tozalovchi kuchli ruhiy mashqdur. Ro'za orqali inson nafs ustidan nazoratni qo'lga kiritadi, bu esa Allohga yaqinlashish,

halollik, sabr, qanoat, hamdardlik kabi komil fazilatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Imom G‘azzoliy o‘z asarida ro‘zani uch darajada ko‘rsatadi: oddiy odamlarning ro‘zasi – faqat ovqat va shahvatdan tiyilish; xoslarning ro‘zasi – gunohli fikr, ko‘z, til, quloq, qo‘l kabi a'zolari ham saqlash; va mutlaq xoslarning ro‘zasi – qalbni Allohdan boshqa narsalardan xoli qilish. Aynan shu tasnif orqali ro‘zaning inson ruhiyatiga nechog‘lik chuqur ta’sir ko‘rsatishi isbotlanadi.

Zamonaviy ilmiy qarashlar ham ro‘zaning ruhiy salomatlik, stressni kamaytirish, ichki uyg‘unlikni ta’minlashdagi rolini tasdiqlamoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ro‘za tutuvchi insonlarda o‘zini nazorat qilish, sabr, iroda va ruhiy barqarorlik kabi ko‘rsatkichlar yuqori bo‘ladi. Bu jihatlar G‘azzoliy g‘oyalarining bugungi kun uchun ham dolzarb va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1- Imom G‘azzoliy. Ihyou Ulumud Din. Bayrut: Dar al-Ma’rifa, 2005.
- 2- Ulvon, Abdulloh Nasih. Ruhiy tarbiya asoslari. Qohira: Al-Fath, 2001.
- 3- Shayx Muhammad al-G‘azzoliy. Tarbiyaviy risolalar. Qohira: Al-Azhar Kutubxonasi, 2003.
- 4- Zaydan, Abdulkarim. Islomda shaxs tarbiyasi. Bag‘dod: Al-Fikr, 1999.
- 5- Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Toshkent: Hilol-nashr, 2014.
- 6- Sayyid Qutb. Tafsir fi zilalil Qur’an. Qohira: Dar ash-Shuruq, 1992.
- 7- Behzod, Kamoliddin. “Imom G‘azzoliy merosining axloqiy falsafasi”. Sharq yulduzi, 2020, №3.
- 8- Ahmad Sirojiddin. Islom ma’naviyati va axloqi. Toshkent: Adabiyot va san’at, 2018.